

## **JAMIYATIMIZDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QADRIYATLARNI O'RNI**

**Ravshan XIDOYATOV,**

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası dotsenti.

[rxidoyatov@mail.ru](mailto:rxidoyatov@mail.ru)

**Ubaydulla XOLMURZAEV,**

6Servis fakul'teti, Professional ta'lim yo'nalishi 552-23 gurux talabasi.

**Annotatsiya:** Maqolada yoshlarni ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni, urf-odat va an'analarni saqlash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasining dolzarbligi, davlat siyosati markazida turganligi, bu borada olib borilayotgan islohotlarning muhim jihatlari hamda globallashuv jarayonida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning an'anaviy va zamonaviy usullari yoritilgan.

**Tayanch iboralar:** vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, davlat siyosati, yoshlar, islohot, harakatlar strategiyasi, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni, urf-odat va an'analarni saqlash, an'anaviy va zamonaviy usullar.

Har bir kishi o'zi yashayotgan jamiyat yoki davlatning tarixiy maqsadini ifoda etadigan bosh g'oyalarini bilishi, aniq tasavvur etishi kerak. Shunda bu maqsadlar ifodasi bo'lgan g'oyalar uning ongi va qalbidan joy oladi, asta-sekin ishonch, e'tiqodga aylanadi. Ishonchsiz, e'tiqodsiz inson o'z yo'lini, maqsad va manfaatlarini chuqur anglab etmaydi. E'tiqod mustahkam bo'lsa, inson g'oya, ezgu maqsad yo'lidan chekinmay odimlaydi. Milliy g'oya odamlarning o'zaro hamjihatligi uchun asos bo'ladi, kuchli ma'naviy ruhiy omilga aylanib, taraqqiyotga xizmat qiladi.

Ilk o'rta asir mutafakkirlaridan biri Abu Nasir Farobiy ma'naviy ozodlik, inson takomili jamiyat qurishning birdan-bir sharti odamlarni ezgulikka chorlash, g'oyaviy jihatdan voyaga etkazish deb bilgan va bu haqida shunday deb yozgan: "Inson baxt-soadat nimaligini tushungan bo'lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g'oya va xohishiga aylantirmagan bo'lsa, unga nisbatan ozgina bo'lsa-da, shavq va zavq sezmasa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa bu qilmishlari yomon va noo'rinlidir..." [1]

Shunday ekan, Milliy-ma'naviy qadriyatlarni boyitishda milliy g'oya muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy qadriyatlarning aholi keng qatlamlari, ayniqsa yosh avlodning mulkiga aylanishi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, buning uchun shu millat taqdiri va istiqboliga befarq qaramaydigan ilg'or vakillarning sa'y-harakati talab etiladi. Moddiy va ma'naviy boyliklar va milliy tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilmas ekan, chang bosgan kitoblar, nurayotgan asori-atiqalar, mazax qilinadigan udumlar

darajasiga tushib qoladi. Millatlar va dinlararo tinchlik-totuvlikni mustahkamlash, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni, urf-odat va an'analarni saqlash hamda rivojlantirish borasidagi vazifalarning amalga oshirish va ma'naviy va axloqiy tarbiyani kuchaytirish, aholining siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishni, hozirgi kunning o'zi taqazo qilmoqda.

Shuning uchun ham 2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi (2023 — 2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish KONSEPSIYASI. Konsepsiya Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son qarori bilan qabul qilingan) O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi [Konstitutsiyasi](#), O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi [Qonuni](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari asosida ishlab chiqildi.

Buyuk bobokolonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur va avlod-ajdodlari, sizga ma'lumki, Hindistonni bosib olib 332 yil hukimronlik qildilar. Shundagi bir epizod meni juda ta'sirlantirdi: Zahiriddin Muhammad Bobur qo'shinida, qudratli hind sarkardasi Rano Sangoga qarshi jang oldidan juda asabiy muhit hukmron edi. Chunki Boburning Ibrohim Lodidan keyin paydo bo'lgan bu raqibi, Mevar rojasi, qobiliyatli va jasur qo'mondon Rano Sango shafqat bilmasligi bilan nom chiqargandi. Bunga jiddiy sabablar bor edi. Avvalo, yaqindagina Boburning Bayanaga yuborgan qo'shini Ranoning rajput askarlari tomonidan mag'lub qilindi. Ra'no Sango o'ziga qarshi yuborilgan barcha bo'linmalarni bitta qo'ymay qirib tashlaydi, bu Bobur qo'shinida katta qo'rquvga sabab bo'lgandi. Vaziyat haqiqatdan ham qaltis edi. Rano Boburga qarshi jangari rajputlar va afg'onlardan iborat 90-100 minglik dahshatli kuchlarni qarshi qo'yayotgandi. Bobur qo'shinining 30 ming atrofida ekani rajputlarning son jihatdan 3 barobar ko'pligi va isbotlangan jasorati Bobur askarlari orasida chinakam qo'rquv uyg'otadi. Bu ham etmagandek, bir ovsar munajjim "barchaning qirilib ketishi haqidagi" o'zining ahmoqona bashoratlari bilan umumiy bezovtalikni battar kuchaytiradi. Bobur qo'shinidagi afg'onlar ham birin-ketin qochib keta boshlaydi. Bundan ham yomoni Boburning eng ishongan chig'atoy turklari o'zlari yomon ko'rgan Hind yurtini himoya qilishdan ko'ra, Boburdan o'zlari to'plagan boy o'ljalari bilan Qobulga jo'nab ketishni iltimos qilib kiradilar. Bobur "Boburnoma"da o'sha vaziyat haqida shunday yozadi: «Butparastlar qo'shinining shiddatli va jasurligi» askarlarni «tashvish va qo'rquvga» soldi. Hech kimdan na erkaklik so'zi, na mard kengash eshitilmadi». Jang arafasida esa chinakam talmovsirash boshlanadi. Uy-joyini qo'msab, oila va farzandlari diydorini ko'rmasdan behuda o'lib ketish xavfi askarlarni qattiq cho'chitar, hatto, jangga kirishdan bo'yin tovlash niyatidagilar ham bor edi.

Bundan achchiqlangan Mirzo Bobur jang arafasida o‘z jahlini sezdirmasdan ot ustida tikka turgani holda askarlariga shunday mazmunda murojaat qiladi: «Oralaringizda o‘lmaydigan, abadiy tirik qoladiganingiz bormi?» Hamma jim. U davom etadi. “Quyosh botish uchun chiqadi, odamzod o‘lish uchun tug‘iladi. Bu ayni haqiqat. It ham o‘ladi, yigit ham o‘ladi. Lekin ularning o‘limi orasida farq bor. It nafsi sabab o‘lsa, yigit hamiyatini, yurtini, or-nomusini himoya qilib jon taslim etadi. Yigit kishi o‘z elini, vatanini, shon-shavkatini, din-diyonatini, ona tuprog‘ini ko‘z qorachig‘idek asrash yo‘lida vafot etsa bu sharaflı o‘limdir. Avlodlarning erki, tinch va osoyishta yashashidan ulug‘ ne‘mat bormi, o‘zi. Engsak g‘oziyimiz, mabodo, qazo qilsak shahid hukmidamiz”. Buni tinglagan askarlar bir necha soniya jim turishadi. Birozdan keyin butun olamni tutgudek na‘ra tortishadi: “Biz jangga tayyormiz, biz albatta engamiz!” Askarlar qilich va nayzalarini baland ko‘tarib jangga shayligini bildirishadi. Ana shu nutqiy xitob, jangovarlik ruhi bilan sug‘orilgan da‘vatnoma 1527-yil martda Boburga Sikri yaqinidagi jangida rajputlar sardori Rano Sango qo‘shinini tor-mor etib, butun Hindistonni bo‘ysundirishiga imkon bergan murojaati edi.

Yoshlarga ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni, urf-odat, an‘analarni va Vatan tuyug‘usini xuddi shunday murojaatlar qilish orqali, singdirish biz ziyoliylarning burchidir deb o‘ylayman.

Millatlar va dinlararo tinchlik-totuvlikni mustahkamlash, ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni, urf-odat va an‘analarni saqlash qiyinchiligi va qiyinchiliklar, to‘siqlar, nomutanosibliklar, hatto jinoiy harakatlarning oshib borishi ham sof vijdonli kishi qalbida Vatan tuyug‘usini, agar u chuqur e‘tiqodga aylangan bo‘lsa, o‘chirolmaydi. Yangi-yangi avlodlarning tug‘ilishi, hayot sahnasiga chiqishi jamiyat oldiga yangi-yangi muammolarni ko‘ndalang qo‘yaveradi, aynan ushbu uzluksizlik, tadrijiylik ijtimoiy hayotning ham uzluksiz, tadrijiy davom etishini ta‘minlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, Vatanni millatlar va dinlararo tinchlik-totuvlikni mustahkamlash, ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni, urf-odat va an‘analarni saqlash, sevish va asrash tuyg‘ularini shakllantirish axloqiy ehtiyojga aylandi. Bugungi kunda bu davlat siyosati markazida turadi. Bu ehtiyojni esa ma‘naviy-axloqiy meros vositasida qondirish samarali natija berishi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta‘biri bilan aytganda, vatanparvarlik xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi. U mehr-oqibat, Vatan taqdiri ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni, urf-odat va an‘analarni saqlash, uchun qayg‘urish, tashvish va falokatlarga hamdardlik kabi axloqiy fazilatlar sirasiga kiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent – 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008
3. Karimov I.A. O‘zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent, O‘zbekiston, 1993
4. Erkaev A. Ma’naviyat – millat nishoni. Toshkent. Ma’naviyat, 1997
5. Р.Хидоятов “Маънавиятсиз – иқтисодиётни юксалтириб бўлмайдим”. Министерство Транспорта Республики Узбекистан Ташкентский транспортный университет при поддержке: Исполнительного комитета стран СНГ- координационное транспортное совещание государств-участников СНГ. Международная научно-техническая конференция “Транспорт: актуальные задачи и инно
6. Хидоятов, Р., Хакимов, О., & Исакобулов, Р. Ю. (2016). Духовная просвещенность руководителя: проблемы и их решения. *Молодой ученый*, (7-2), 96-99. вации”. Тошкент 22 апреля 2021г.
7. Хидоятов, Р., & Тўхтаев, З. (2022). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ НОВОЙ УЗБЕКСКОЙ ЭКОНОМИКИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 35.
8. ХИДОЯТОВ, Р. (2023). МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА МУҲИМ ОМИЛ.
9. Ҳахуаевна, Р. В. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 2(3), 23-26.
10. Ҳахуаевна, Р. В. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT*, 2(3), 37-40.
11. Abdullayevna, F. K., & Abdurashidovich, T. M. (2021). Supporting young people and strengthening the health of the population-as a priority in the appeal. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*, 2(2), 147-152.